

GLOBALLASHUV DAVRIDA MILLIY O'ZLIKNI SAQLASH VA MA'NAVIY QADRIYATLAR HIMOYASI

Ja'farov Ibrohimjon Xolmuhammad o'g'li, Namangan davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

СОХРАНЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНОГО САМОСОЗНАНИЯ И ЗАЩИТА ДУХОВНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В ЭПОХУ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

*Джафаров Ибрагимжан Холмухаммад оғлы,
преподаватель Наманганского государственного
педагогического института*

PROTECTION OF NATIONAL IDENTITY AND SPIRITUAL VALUES IN THE ERA OF GLOBALIZATION

*Ja'farov Ibrahimjan Kholmuhammad o'g'li, Teacher of
Namangan State Pedagogical Institute*

Annotatsiya: Mazkur maqolada globallashuv jarayonlarining milliy o'zlik va ma'naviy qadriyatlarga ta'siri tahlil qilingan. Milliy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirishga qaratilgan samarali chora-tadbirlar va mexanizmlar ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: globallashuv, milliy o'zlik, ma'naviy qadriyat, qadriyat himoyasi, madaniy meros, milliy o'ziga xoslik, globallashuv ta'siri, ma'naviyat, ijtimoiy transformatsiya, milliy birlik, axloqiy qadriyat, milliy rivojlanish.

Abstract: This article analyzes the impact of globalization processes on national identity and spiritual values. Effective measures and mechanisms aimed at the preservation and development of national values are considered.

Key words: globalization, national identity, spiritual value, protection of value, cultural heritage, national identity, influence of globalization, spirituality, social transformation, national unity, moral value, national development.

Аннотация: В данной статье анализируется влияние процессов глобализации на национальное самосознание и духовные ценности. Будут рассмотрены эффективные меры и механизмы, направленные на сохранение и развитие национальных ценностей.

Ключевые слова: глобализация, национальная идентичность, духовная ценность, защита ценностей, культурное наследие, национальная идентичность, влияние глобализации, духовность, социальная трансформация, национальное единство, моральная ценность, национальное развитие.

KIRISH. Zamonaviy dunyoda globallashuv jarayoni ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy sohalarga tobora chuqur singib borar ekan, milliy o'zlikni saqlash va ma'naviy qadriyatlarni himoya

qilish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ma'lumki, globallashuv faqatgina iqtisodiy-texnik munosabatlarni kengaytirishdan iborat bo'lmay, balki sivilizatsion tusga ega bo'lgan madaniy



<https://orcid.org/0009-0000-1197-3973>

e-mail:

sultanhuzayfa19@gmail.com

integratsiya va axborot oqimlarini ham o‘z ichiga oladi. Bu jarayonda ayrim madaniyatlar o‘zining an’anaviy qadriyatlarini yo‘qotish xavfi ostida qolgani sir emas. Bugungi kunda qadriyatlar sohasidagi o‘zgarishlarga e’tibor va bu boradagi yangi tamoyillardan ta’lim-tarbiyada foydalanish ehtiyoji oshayotganligining sababi ham ana shunda. Insoniyat uchun eng buyuk bebaho boylik milliy madaniyatdir. U yoki bu millatning millat sifatida shakllanishi, farqlanishi ham milliy madaniyatga aloqadordir. Millat qachonki ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy jihatdan ma’naviy qurollangan bo‘lsa, madaniyatli bo‘lsa, u doimiy bo‘linmas barqaror kuchga ega bo‘ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Globallashuv tushunchasi dastlab iqtisodiy ma’noda ishlatilib, xalqaro savdo, investitsiya oqimlari, transport va kommunikatsiya tarmoqlarining birlashuv jarayonini anglatar edi. Biroq XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab globallashuv tushunchasi kengayib, madaniy, siyosiy, ma’naviy, axborot sohalarini ham o‘z ichiga oldi. Zigmunt Bauman “Globalization: The Human Consequences” asarida globallashuvni odamlar kundalik hayotiga ham chuqur ta’sir o‘tkazuvchi, hayotni “xilma-xil” va ayni chog‘da “yagona” shaklga yaqinlashtiruvchi jarayon sifatida sharhlaydi[1]. Uning fikricha, axborot texnologiyalarining rivojlanishi, mehnat munosabatlarining o‘zgarishi va madaniy xilma-xillikning tezkor integratsiyasi natijasida shaxsning milliy identifikatsiyasi va ma’naviy qadriyatlarini sinovdan o‘tadi. Bauman nuqtayi nazarida, globallashuv har doim ham ijobiy bo‘lavermaydi, chunki u bilan birga ijtimoiy tengsizlik, “madaniy iste’mol”ning biryoqlamalikka yuz tutishi yoki kichik madaniyatlarni inkor qilish xavfi ham kuchayadi.

Shu tarzda globallashuv ijtimoiy-falsafiy jarayon sifatida muayyan jamiyatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojiga o‘z hissasini qo‘sishi mumkin bo‘lsa-da, ayni paytda, an’anaviy qadriyatlar, urf-odatlar va madaniy o‘zlik masalalarini ham keskinlashtiradi. Shuning uchun ham mazkur jarayonni bir taraflama “tarraqqiyot manbai” sifatida tasavvur qilish noto‘g‘ri bo‘ladi. Samuel Xantington globallashuvni, avvalo, sivilizatsiyalar o‘rtasidagi muvozanatni buzishi mumkin bo‘lgan omil sifatida ko‘rib, madaniy-g‘oyaviy ziddiyatlar yaqin kelajakda geosiyosiy nizolar shaklida ham bo‘y

ko‘rsatishidan ogohlantiradi[2]. Uning tahlilicha, milliy yoki diniy o‘zlik tanazzulga yuz tutsa, jamiyatda ijtimoiy barqarorlik izdan chiqishi mumkin.

Globallashuv masalasi bo‘yicha G‘arb falsafasida turli pozitsiyalar mavjud. Bir tomondan, liberal qarashlar globallashuvni inson erkinligi, bozor iqtisodiyotining kengayishi, tezkor axborot almashinuvni orqali umumbashariy taraqqiyotga olib kelishini ta’kidlashadi. Boshqa tomondan, ijtimoiy tanqidchilar ham paydo bo‘lib, ular Bauman kabi globallashuvning murakkab oqibatlari, jamiyatda tazyiq, begonalashuv (alienation) va postmodern sharoitdagi tanazzul alomatlariga e’tibor qaratishadi.

Sharq falsafasi ham ushuu jarayonga nisbatan rang-barang baholarni ilgari suradi. Ibn Xaldun o‘zining “Muqaddima” asarida jamiyatlarning rivoji asosan ichki ijtimoiy aloqalar mustahkamligi va ma’naviy birdamlik bilan belgilanishini uqtiradi [3]. Uning nazarida, tashqi ta’sirlar, xususan, boshqa sivilizatsiyalar bilan aloqa qilish, faqat muayyan “asl” qadriyatlarni mustahkam saqlagan holda jamiyat manfaati yo‘lida xizmat qilishi mumkin. Agar jamiyat ichidan mustahkam ma’naviy negizga ega bo‘lmasa, tashqi oqimlar bilan aralashgan paytda o‘zligini yo‘qotib qo‘yish xavfi tug‘iladi. Xitoy faylasuflaridan Konfutsiy “Analects” asarida insoniylik va odob normalarini milliy madaniyatning poydevori sifatida ko‘rsatib, har qanday tashqi ta’sirga duch kelinganda ushuu tamoyillarni qadrlash va e’zozlash zarurligini qayd qiladi[4]. Konfutsiycha yondashuvda “li” (odob-axloq qoidalari) va “jen” (insoniylik) kabi tushunchalar ijtimoiy muvozanat va sivilizatsiyani saqlab turuvchi ichki mexanizmlar sifatida gavdalanadi.

MUHOKAMA. Milliy o‘zlik tushunchasi jamiyatdagi madaniy, tarixiy, lingvistik hamda ma’naviy faktorlar majmui bilan belgilanadi. Milliy o‘zlik – har bir xalqning o‘ziga xosligi, avlodlar davomiyligida saqlanib, keyingi avlodlarga meros bo‘lib o‘tadigan qadriyatlar, til, urf-odatlar va dunyoqarashdir. Globallashuv davrida mazkur o‘ziga xoslik ayrim ommaviy, kosmopolit madaniyat yutug‘iga aylanib ketmaslik uchun, milliy merosni tizimli ravishda saqlash hamda uning aktual ahamiyatini namoyon etish talab etiladi. Ma’lumki, VIII asrning ikkinchi yarmi – IX asrda Movarounnaharda keskin iqtisodiy yuksalish yuz berdi. Ana shu davr namoyondalaridan bo‘lgan Forobiy jamiyatning barkamolligi haqidagi g‘oyani

ilgari surar ekan, har bir xalqning ijtimoiy ideal shakllanishida an'anaviy bilimlar, madaniy xususiyatlar katta o'rin tutishini qayd etadi[5]. U milliylikning saqlanishi, bu borada ma'naviy poydevor rolini bajarishini uqtiradi.

Milliy o'zlikni shakllantiruvchi asoslardan biri – bu ma'naviy qadriyatlar bo'lib, ular diniy e'tiqod, urf-odatlar, axloq me'yordi, og'zaki ijod, tilda ifodalanuvchi timsollar, tarixiy xotira va shu kabi tarkibiy qismlardan iborat bo'ladi. Immanuel Kant uchun milliylik alohida muhim prinsip bo'lmasa ham, lekin har bir jamiyatning o'ziga xos "amaliy aql'i va "rag'batlantiruvchi" axloqiy negizlari borligini aytish orqali, turli madaniy doiralarni asrash zarurligini nazarda tutadi. Shuning uchun ham har bir xalqning milliy madaniyatini o'zining axloqiy idealini shakllantirib, tamoyillarga sodiq qolishi, insonning tevarak-atrofn anglashida, qaror qabul qilishida mustahkam asoslarga tayanishini ta'minlaydi.

Har bir ijtimoiy hodisaning ijobiy va salbiy tomoni bo'lgani singari, globallashuv jarayoni ham bundan mustasno emas. Globallashuv jarayonining chuqurlashib borishi natijasida inson uchun xavfli bo'lgan turli xil noan'anaviy tahdidlar yuzaga kelmoqda. Bulardan eng xavflilari insonlarning ruhiyatiga ta'sir o'tkazish orqali millatlarning qadriyatlari va turmush tarzini izdan chiqarishga qaratilgan axloq-odob, oila va jamiyat hayotiga jiddiy ta'sir ko'rsatadigan ma'naviy tahidlar hisoblanadi. Globallashuv dastlab madaniy universalizm g'oyasini ham olg'a surdi. Ya'ni, umumbashariy madaniyat, umumiylar (avvalo, ingliz tilining global shaklda yoyilishi), xalqaro turmush standartlari, dunyoviy g'oyalarning ustuvorligi bilan tavsiflanadigan "global fuqarolik jamiyat" shakllanishi xususida gap-so'zlar keng tarqaldi. Biroq bu jarayon amalda o'ziga xos tanqidlarga ham uchradi. Masalan, Martin Haydeger texnologik davrda inson borliqni faqat "foydalanish" obyekti sifatida ko'rish xavfi haqida gapirar ekan, milliy an'analar, ma'naviy qadriyatlar ham shu "hisobsiz ekspluatatsiya" nazaridan o'tishi, natijada, inson avvalgi ma'naviy-ruhiy butunlikni yo'qotishi mumkinligi haqida ogohlantiradi[6]. Haydeggerning nazarida, globallashgan dunyoda har bir millat avvalambor o'zining ontologik negizini, ya'ni mavjudlikdagi ma'naviy ildizini mustahkamlab borishi shart.

Garchi madaniy universalizm insonlar o'rtasida muloqot osonlashuviga, ma'rifiy integratsiyaga xizmat qilishi mumkin bo'lsa-da, milliy o'zlikni saqlash nuqtayi nazaridan qaraganda, ba'zi nojo'ya holatlarga ham sabab bo'lishi ehtimoldan xoli emas. Xususan, ayrim madaniy makonlar "individuallashtirilgan" zamon ruhida o'zining kollektiv xotirasini, jamiyat an'analarini, avloddan-avlodga uzviy o'tib kelayotgan og'zaki ijod, folklor, milliy urf-odatlarini yo'qotishi mumkin. Bunday jarayon jamiyatda ichki nomutanosiblik, ma'naviy bo'shliq, allaqanday "begonalashuv" muhitini yuzaga keltirishi ehtimoli bor.

NATIJALAR. Ma'naviy qadriyatlarni himoya qilish va milliy o'zlikni saqlashda bir nechta omillar alohida e'tiborga loyiqdir. Avvalo, ijtimoiy institutlar – oila, muktab, mahalla, diniy va jamoat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari – bevosita bu jarayonda ishtiroy etishi lozim. Chunki globallashuv jarayonida axborot tezkor tarqaladi, yoshlar ongiga turli ko'rinishdagi "ommaviy madaniyat" mahsulotlari kirib borishi mumkin. Bu shaxsning dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi shakllanishida ziddiyatli holatlar keltirib chiqarishi tabiiy. Qolaversa, "ommaviy madaniyat" dan tashqari, "ommaviy axborot manipulyatsiyasi" atrofidagi xavflar ham mavjud.

Milliy merosni asrash masalasida esa madaniy va tarixiy yodgorliklarning huquqiy himoyasi, turli meros jamg'armalari, muzeylar, milliy bog'lar, an'anaviy urf-odatlar, xalq og'zaki ijodini e'zozlash kabi choralarining salmog'i ortishi kerak. Yosh avlodga o'z tarixiga, madaniy merosiga hurmat bilan qarashni o'rgatish – bu jarayonning muhim qismi. Tarixiy xotira, milliy pahlavonlar, buyuk mutafakkirlar, avliyolar siyimosi ijtimoiy xotirada naqadar mustahkam saqlansa, jamiyat "ommaviy madaniyat" tajovuziga shuncha puxta javob qaytarish qudratiga ega bo'ladi. Shu ma'noda, globallashuv – bu shunchaki shaxsiy tanloving "xalqaro ko'lamda" o'z ifodasini topishi emas, balki jamiyatning milliy merosini himoya qilish va bir vaqtning o'zida samarali o'zlashtirish jarayoni ekanini yodda tutish lozim.

Globallashuv davri milliy qadriyatlar va zamonaviy g'oyalar o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirish imkoniyatini ham taklif etadi. Bunda, avvalo, milliy madaniyatning asosiy unsurlari – til, urf-odatlar, an'anaviy badiiy ijod va milliy tarix – zamonaviy pedagogik va axborot vositalari orqali

keng targ‘ib etilishi mumkin. Masalan, raqamli platformalar, ijtimoiy tarmoqlar va onlayn ta’lim dasturlari yordamida milliy musiqiy cholg‘u asboblari, xalq amaliy san’ati, tarixiy obidalar, adabiy meros bilan bog‘liq ma’lumotlar global maydonga olib chiqiladi. Bu esa milliy merosni o‘zga sivilizatsiyalarga tanishtirish, shu bilan birga, jamiyat ichida ham milliy iftixor hissini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Biroq bunday uyg‘unlik shunchaki shakllanib qolmaydi. Modernizatsiya jarayonlarida ayrim jamiyatlar “yoppasiga g‘arblashtirish” siyosatini yuritishi, ayrimlari esa arxaik-an’anaviy yo‘nalishda mahalliy tuzumni mutlaqlashtirishi mumkin. Moddiy taraqqiyot hamda madaniy-ma’naviy barqarorlikni uyg‘un saqlash – murakkab, ammo zaruriy yo‘ldir. Forobiy va Ibn Xaldun kabi mutafakkirlar asarlarini mutolaa qilgan holda, axloqiy mustahkamlik, ijtimoiyadolat va ichki hamjihatlik kabi omillar zamonaviy jamiyatga ham xos bo‘lishi kerakligini e’tirof etish mumkin. Ana shundagina globallashuvning ijobiy jihatlari (ilmiy almashinuv, iqtisodiy farovonlik, texnologik taraqqiyot) milliy manfaatga moslashishi, salbiy jihatlari (axloqiy parokandalik, madaniy assimilyatsiya, begonalashuv) cheklanib borishi mumkin.

XULOSA. Globallashuv jarayoni bugungi kunda murakkab, ko‘p qirrali tizimni vujudga keltirdi. Bir tomonidan, globallashuv – ilmiy-texnik almashinuv, iqtisodiy farovonlik, madaniy muloqotlar uchun beqiyos imkoniyatlar berishi mumkin. Ikkinci tomondan, bu jarayon alohida millatlarning o‘ziga xosligini buzishi, ma’naviy qadriyatlarini zaiflashtirishi yoki madaniy to‘qnashuvlarni keltirib chiqarishi ehtimoli bor. G‘arb faylasuflari Haydegger, Habermas yoki Bauman, shuningdek, Sharq mutafakkirlari Forobiy,

Ibn Xaldun, Konfutsiyning ijtimoiy-falsafiy qarashlari shuni ko‘rsatadiki, milliy o‘zlikni saqlash bilan birga, zamonaviylikni ham qarshi oladigan uyg‘unlik lozim.

Shunday qilib, globallashuv davri jahon hamjamiyatining ijtimoiy, iqtisodiy, axloqiy taraqqiyotida katta rol o‘ynayotgan bo‘lsa-da, milliy o‘zlikni asrash masalasi ham shunchalik kuchli va ishonchli tamoyillarni, siyosat va strategiyalarni talab etadi. Zero, milliy o‘zlik va ma’naviy qadriyatlar – jamiyatni birlashtirib turadigan, barqarorlik va izchil taraqqiyot garovi bo‘lgan “ruhiy poydevor”dir. Bu poydevor mustahkam bo‘lsa, globallashuv jarayonining salbiy ta’sirlariga qarshi turish, ijtimoiy totuvlik, inson qadrini ulug‘lash, madaniy xilma-xillikni rivojlantirish imkoniyatlari yuksak bo‘ladi. Bunday jamiyat o‘z tariqatini saqlagan holda, dunyo bilan hamohanglikda, barqaror taraqqiyot sari qadam tashlash qudratiga ega bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Bauman, Zygmunt. Globalization: The Human Consequences. Columbia University Press, 1998, pp. 33.
2. Huntington, Samuel P. The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order. Simon & Schuster, 1996, pp. 77.
3. Ibn Khaldun. The Muqaddimah. Princeton University Press, 1967, pp. 112.
4. Confucius. The Analects. Oxford University Press, 1979, pp. 45.
5. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent. 2004. 122- b.
6. Heidegger, Martin. The Question Concerning Technology and Other Essays. Harper & Row, 1977, pp. 59.

